O‘ZBEKISTON TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI XALQARO TIZIMLAR BILAN INTEGRATSIYALASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

ИНТЕГРАЦИЯ ТРАНСПОРТНО-ЛОГИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СИСТЕМАМИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

INTEGRATION OF UZBEKISTAN’S TRANSPORT AND LOGISTICS SYSTEM WITH INTERNATIONAL SYSTEMS: PROBLEMS AND SOLUTIONS







xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2026-yil 24-25 aprel

Samarqand - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MARKETING KAFEDRASI

“O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash: muammolar va yechimlar”

“Интеграция транспортно-логистической системы Узбекистана в международные системы: проблемы и решения”

“Integration of Uzbekistan’s Transport and Logistics System with International Systems: Problems and Solutions”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026 yil 24-25 aprel

SAMARQAND – 2026

UO‘K: 656:339.9
X 75
KBK: 65.37(5O‘zb)

O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash: muammolar va yechimlar // xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026 yil 24-25 aprel. Samarqand, SamISI, 2026. – 815 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
D.H.Xolmamatov – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professori.

Nashr uchun mas’ullar:
Sh.A.Musayeva – iqtisod fanlari nomzodi, professor
N.Babayev – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
B.Sh. Musayev – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Z.I.Usmanova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
D.I.Usmonova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
K.B.Suyunova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
N.B.Yahyoxonov – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
S.K.Boyjigitov – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
M.B.Kalanova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Sahifalovchi: assistent T.A.Tilloyev

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislar iqtisodiyot va uning sohalarida logistika, uning markazlarini tashkil etish, O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash muhokama qilib, olib borilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadiga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi vazifalarning yechimi aks ettirilgan, ya’ni: Iqtisodiyot tarmoqlarida transport-logistika tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari, O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalashning ilmiy-amaliy jihatlari, mamlakatimizda transport-logistika tizimini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish, transport-logistika tizimlarida axborot va moliya oqimlarni tashkil qilish hamda boshqarish, turizm industriyasi va servis sohasida transport-logistika tizimi, soha va turdosh mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashda logistikaning roli.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Статьи и диссертации, включенные в данный сборник, направлены на обсуждение логистики в экономике и ее секторах, организации ее центров, интеграции транспортно-логистической системы Узбекистана с международными системами, а также на разработку научно обоснованных рекомендаций по результатам проведенных исследований, отражающих решение следующих задач, а именно: актуальные вопросы развития транспортно-логистической системы в секторах экономики, научно-практические аспекты интеграции транспортно-логистической системы Узбекистана с международными системами, использование зарубежного опыта в развитии транспортно-логистической системы в нашей стране, организация и управление информационно-финансовыми потоками в транспортно-логистических системах, роль логистики в транспортно-логистической системе в сфере туризма и услуг, роль логистики в подготовке кадров в отрасли и смежных специальностях.

Диссертации публикуются под редакцией авторов. Авторы несут ответственность за содержащиеся в них рисунки, факты, выводы и рекомендации. Некоторые из их мнений могут не совпадать с мнением организационной группы.

The articles and theses included in this collection are aimed at discussing logistics in the economy and its sectors, the organization of its centers, the integration of the transport and logistics system of Uzbekistan with international systems, and developing scientifically based recommendations as a result of the research conducted, which reflect the solution to the following tasks, namely: Current issues of developing the transport and logistics system in economic sectors, scientific and practical aspects of integrating the transport and logistics system of Uzbekistan with international systems, the use of foreign experience in developing the transport and logistics system in our country, the organization and management of information and financial flows in transport and logistics systems, the role of logistics in the transport and logistics system in the tourism industry and service sector, the role of logistics in training personnel in the sector and related specialties.

Theses are published under the editorship of the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations contained in them. Some of their opinions may not coincide with the views of the organizational group.

ISBN: 978-9910-225-64-2

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.
© “STEP-SEL” MChJ nashriyot-matbaa ijodiyot bo‘limi, 2026.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasini rivojlantirishda mehnat bozorining ahamiyati juda katta bo‘lib, uni samarali tashkil etish orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki hududiy rivojlanish va aholi bandligini ta’minlashga ham erishish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xalimov Shaxboz Xalimovich RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2026. №14.I. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalarning-turizm-xizmatlari-samaradorligiga-ta-siri
2. O‘roqova Dilfuza Bahriddinovna TURIZM SANOATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SMART TURIZM PLATFORMALARINING SAMARADORLIGI // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2025. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sanoatida-raqamli-texnologiyalar-va-smart-turizm-platformalarining-samaradorligi
3. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13088_1_F36AC6724DC732E8D8D9685082ED9E6FEC1ED2B8.pdf
4. Toshev N. (2025). Turizm xizmatlari samaradorligini oshirish metodologiyasini rivojlantirish. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(9). https://doi.org/10.5281/zenodo.17258121

Muxiddinov M.Sh.
SamISI mustaqil izlanuvchisi

LOGISTIKA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOND OMBORLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlari samaradorligini oshirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xalqaro savdo hajmining ortishi, transchegaraviy operatsiyalarning murakkablashuvi hamda bojxona tartib-taomillarining qat’iylashuvi logistika infratuzilmasining yangi shakllarini rivojlantirishni talab etmoqda. Shunday muhim elementlardan biri - bu bond (bojxona nazoratidagi) omborlardir.

Kalit so‘zlar: Bond omborlar, optimallashtirish, logistika, maxsus logistika obyektlar, moliyaviy likvidlik, eksport, oqim, boj to‘lovlari, taqsimlash, tranzit, re-eksport.

Abstract. In the context of the modern global economy, improving the efficiency of logistics systems has become an issue of particular relevance. The growth of international trade volumes, the increasing complexity of cross-border operations, and the tightening of customs procedures necessitate the development of new forms of logistics infrastructure. One of the key elements in this regard is the bonded warehouse, which operates under customs control.

Keywords: Bonded warehouses, optimization, logistics, specialized logistics facilities, financial liquidity, export, flow, customs duties, distribution, transit, re-export.

Аннотация. В условиях современной глобальной экономики повышение эффективности логистических систем приобретает особую актуальность. Рост объемов международной торговли, усложнение трансграничных операций, а также ужесточение таможенных процедур требуют развития новых форм логистической инфраструктуры. Одним из важных элементов в данном контексте являются бондовые склады (таможенные склады), функционирующие под таможенным контролем.

Ключевые слова: Бондовые склады, оптимизация, логистика, специализированные логистические объекты, финансовая ликвидность, экспорт, поток, таможенные платежи, распределение, транзит, реэкспорт.

Bond omborlar - bu tovarlarni bojxona to‘lovlari va soliqlarini darhol amalga oshirmagan holda saqlash imkonini beruvchi maxsus logistika obyektlari hisoblanadi. Ushbu tizim korxonalarga

moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish, import operatsiyalarini optimallashtirish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Bond omborlarning iqtisodiy mohiyati quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘ladi:

moliyaviy likvidlikni oshirish - boj to‘lovlarini kechiktirish orqali;

operatsion xarajatlarni kamaytirish - saqlash va qayta taqsimlash imkoniyatlari orqali;

logistika moslashuvchanligini oshirish - talabga mos ravishda tovarlarni chiqarish imkoniyati orqali;

xalqaro savdo samaradorligini oshirish - tranzit va re-eksport operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash orqali.

Shu nuqtai nazardan, bond omborlar logistika tizimining strategik bo‘g‘ini sifatida nafaqat saqlash funksiyasini, balki ta’minot zanjirini boshqarishning muhim instrumenti sifatida ham xizmat qiladi. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda bond omborlarning ta’sir mexanizmi bu logistika xizmatlari samaradorligi ko‘p jihatdan resurslardan foydalanish darajasi, vaqt tejalishi va xarajatlarning optimallashuvi bilan belgilanadi. Bond omborlar ushbu uchta asosiy mezon bo‘yicha sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bond omborlardan foydalanish natijasida korxonalar bojxona to‘lovlarini tovar realizatsiya qilinmaguncha kechiktirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, katta hajmdagi import operatsiyalarida ushbu omil muhim ahamiyatga ega.

Vaqt omili va logistika tezligi bond omborlar logistika jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Chunki bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlari ko‘pincha ombor hududida amalga oshiriladi. Natijada transport vositalarining kutish vaqti qisqaradi va yetkazib berish tezligi oshadi.

Zamonaviy bond omborlar inventar boshqaruv tizimlari (WMS) bilan jihozlangan bo‘lib, real vaqt rejimida tovarlar harakatini kuzatish imkonini beradi. Bu esa ortiqcha zaxira yig‘ilishini oldini oladi va talabga mos ravishda taqsimlashni ta’minlaydi. Bond omborlar orqali tovarlarni saqlashda bojxona nazorati mavjudligi sababli noqonuniy operatsiyalar, yo‘qotishlar va huquqiy xatoliklar ehtimoli kamayadi. Bu esa logistika tizimining umumiy ishonchliligini oshiradi.

Bugungi kunda logistika sohasida raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Ushbu jarayon bond omborlar faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish zamonaviy bond omborlarda quyidagi texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

IoT (Internet of Things) asosidagi monitoring tizimlari;

avtomatlashtirilgan ombor boshqaruv tizimlari (WMS);

sun’iy intellekt asosidagi talab prognozlash tizimlari.

Ushbu texnologiyalar logistika operatsiyalarini aniqlik, tezlik va samaradorlik bilan amalga oshirish imkonini beradi. Integratsiyalashgan logistika tizimlari bond omborlar ta’minot zanjirining boshqa elementlari - ishlab chiqarish, transport va distribyutsiya tizimlari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Bu “end-to-end supply chain” modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Logistika hub sifatida rivojlanish ko‘plab mamlakatlarda bond omborlar logistika markazlari (hub) sifatida faoliyat yuritib, tovarlarni qayta taqsimlash va tranzit operatsiyalarini amalga oshiradi. Bu esa mamlakatning logistika salohiyatini oshiradi. Bond omborlar samaradorligiga qaramay, ularni joriy etish va rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud:

Yuqori kapital investitsiyalar talab qilinishi;

Bojxona tartib-taomillarining murakkabligi;

Infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganligi;

Malakali logistika mutaxassislarining yetishmasligi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bond omborlardan samarali foydalanish logistika xizmatlari samaradorligini sezilarli darajada oshiradi xususan:

logistika xarajatlari kamayadi;

yetkazib berish tezligi oshadi;

ta’minot zanjiri barqarorligi kuchayadi;

korxonalar raqobatbardoshligi ortadi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan bond omborlar kelajakda “raqamli logistika tizimlari”ning ajralmas qismiga aylanadi.

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bond omborlar nafaqat logistika infratuzilmasining muhim elementi, balki global savdo tizimining samarali ishlashini ta’minlovchi strategik vosita hisoblanadi. Kelgusida bond omborlarni raqamlashtirish, avtomatlashtirish va xalqaro logistika tizimlari bilan integratsiyalash orqali ularning samaradorligini yanada oshirish mumkin va bu davlatning muhim drayveriga aylanadi.

Xalimov Sh.X.
SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +998996639888

QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIKA MUTAXASSISLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq turizmini rivojlantirishda logistika mutaxassislarining ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda transport oqimlarini boshqarish, xizmatlar zanjirini tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika jarayonlarini raqamlashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, logistika tizimini takomillashtirish orqali qishloq turizmi samaradorligini oshirish yo‘llari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq turizmi, logistika, logistika mutaxassislari, transport tizimi, turizm iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar zanjiri.

Аннотация. В данной статье анализируется значение логистических специалистов в развитии сельского туризма. Рассматриваются вопросы управления транспортными потоками, организации цепочки услуг, эффективного использования ресурсов, а также цифровизации логистических процессов в условиях цифровая экономика. Также обоснованы пути повышения эффективности сельского туризма через совершенствование логистической системы.

Ключевые слова: сельский туризм, логистика, логистические специалисты, транспортная система, экономика туризма, цифровая экономика, цепочка услуг.

Abstract. This article analyzes the importance of logistics specialists in the development of rural tourism. It examines issues of transport flow management, service chain organization, efficient resource utilization, and the digitalization of logistics processes under the conditions of the digital economy. The study also substantiates ways to improve the efficiency of rural tourism through the development of logistics systems.

Keywords: rural tourism, logistics, logistics specialists, transport system, tourism economics, digital economy, service chain.

Kirish. So‘nggi yillarda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida turizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromadini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan qishloq turizmi zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Qishloq turizmining samarali rivojlanishi nafaqat tabiiy va madaniy resurslarga, balki xizmatlar zanjirini to‘g‘ri tashkil etishga ham bog‘liqdir. Bu jarayonda logistika tizimi va malakali logistika mutaxassislarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki turistlarning kelishi, ularning joylashuvi, transport xizmatlari, oziq-ovqat ta’minoti hamda xizmatlar oqimini samarali boshqarish bevosita logistika faoliyati bilan bog‘liq.

Turizm iqtisodiyoti doirasida logistika tizimi turizm xizmatlarining uzluksizligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Qishloq hududlarida esa infratuzilmaning cheklanganligi logistika jarayonlarini yanada murakkablashtiradi va bu sohada professional mutaxassislarga ehtiyojni oshiradi.

Ximmatov E.X.	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika ta’limida elektron ta’lim resurslarining o‘rni	766
Муллажанова Х.Я. Абдрашидов Ш.	Историческое наследие Узбекистана в современном мире и его обширность	771
Abdukhalikova K.A. Sultonov N.	Digital logistics capabilities and advantages	773
Mullajanova X.Y. Kobilov B.	The impact of the silk road on the economic and cultural development of Uzbekistan	775
Xalimov Sh.X.	Turizm sohasini rivojlantirishda mehnat bozorining ahamiyati	780
Muxiddinov M.Sh.	Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda bond omborlardan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari	782
Xalimov Sh.X.	Qishloq turizmini rivojlantirishda logistika mutaxassislarining ahamiyati	784
Mattiyev I.B. Absalomov S.U.	Nemis tilini o‘rgatishda interfaol metodlarning samaradorligi	786
Xalimov Sh.X.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish	789
Muxiddinov M.Sh.	Zamonaviy texnologiyalar asosida erkin iqtisodiy zonalarda logistika infratuzilmasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	792
Xalimov Sh.X.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda turizm xizmatlari rivojlantirishda kadrlar muammosi	794
Xalimov Sh.X.	Qishloq joylarda turizm xizmatlari rivojlantirishda mehnat unumdorligini oshirish	796
Yahyokhonov N.B.	Assessment of the specific characteristics and effectiveness of digital marketing utilization in the service sector	799

O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash: muammolar va yechimlar

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.

2026-yil 24-25 aprel kunlari

“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2026.

ISBN:978-9910-225-64-2

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **“STAP-SEL” MChJ.** nashriyoti,
Samarqand-2026

2490

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 50,62
Buyurtma № 0058A/26. Adadi 25 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.